



## 2020- yil yanvar-iyun oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida jami 2744,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2019 - yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,4 % ni tashkil etdi.




### 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 387 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **107,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **74,2%**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **118,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,4 %**) o'sishidir.




**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2019- yil	01.07.2020- yil	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2503</b>	<b>2890</b>	<b>115,5</b>
<b>Samarqand sh.</b>	<b>888</b>	<b>1025</b>	<b>115,4</b>
<b>Kattaqo'rg'on sh.</b>	<b>69</b>	<b>101</b>	<b>146,4</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oqdaryo</b>	<b>111</b>	<b>120</b>	<b>108,1</b>
<b>Bulung'ur</b>	<b>49</b>	<b>64</b>	<b>130,6</b>
<b>Jomboy</b>	<b>87</b>	<b>113</b>	<b>129,9</b>
<b>Ishtixon</b>	<b>124</b>	<b>139</b>	<b>112,1</b>
<b>Kattaqo'rg'on</b>	<b>97</b>	<b>115</b>	<b>118,6</b>
<b>Qo'shrabot</b>	<b>60</b>	<b>63</b>	<b>105,0</b>
<b>Narpay</b>	<b>65</b>	<b>82</b>	<b>126,2</b>
<b>Payariq</b>	<b>199</b>	<b>219</b>	<b>110,1</b>
<b>Pastdarg'om</b>	<b>261</b>	<b>286</b>	<b>109,6</b>
<b>Paxtachi</b>	<b>51</b>	<b>60</b>	<b>117,6</b>
<b>Samarqand</b>	<b>101</b>	<b>123</b>	<b>121,8</b>
<b>Nurobod</b>	<b>44</b>	<b>41</b>	<b>93,2</b>
<b>Urgut</b>	<b>183</b>	<b>207</b>	<b>113,1</b>
<b>Tayloq</b>	<b>114</b>	<b>132</b>	<b>115,8</b>



**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni  
01.07.2020- yil holatiga ko'ra  
xududlar kesimida(ulushi % da)**




**Ma'lumot uchun:** Samarqand viloyatida soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Samarqand sh. (34,4 %), Oqdaryo tumani (8,3 %) va Tayloq (7,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **265,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **7,7** martaga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **8,4 %** punktga ko'payib, **9,7 %** ni tashkil etdi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Samarqand shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **45,9 %** yoki 2019- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **4,5** marta.), Tayloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **26,4 %**) va Pstdarg'om tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,3 %**) ga to'g'ri keldi.



**Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

- 2020- yil yanvar-iyun
- 2019- yil yanvar-iyun

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **64,7 %** to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,8 %** punktga ko'paydi.


Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **90,3 %** ni tashkil etgan holda **1775,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga **25,6 %** ni tashkil etdi yoki **703,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **75,5 %** ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **88,5** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,3 %** ga qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2656,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **101,2 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **3,2 %** va **96,8 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2020- yil yanvar-iyun

Samarqand viloyatida qurilish ishlari

7



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-iyun

66,7 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 66,7 % yoki **1 831,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

93,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **247,3** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 13,5 % ni tashkil etdi.

51,6 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **916,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 50,0 % ni tashkil etdi.

94,9%

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **667,9** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 36,5 % ni tashkil etdi.





**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-iyun oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2744,9</b>	<b>101,4</b>	<b>1831,9</b>
<b>Samarqand sh.</b>	<b>944,2</b>	<b>104,5</b>	<b>630,1</b>
<b>Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:</b>	<b>52,8</b>	<b>106,0</b>	<b>35,2</b>
<b>Oqdaryo</b>	<b>226,5</b>	<b>103,5</b>	<b>151,2</b>
<b>Bulung'ur</b>	<b>61,8</b>	<b>91,5</b>	<b>41,2</b>
<b>Jomboy</b>	<b>136,3</b>	<b>101,0</b>	<b>91,1</b>
<b>Ishtixon</b>	<b>138,2</b>	<b>100,2</b>	<b>92,2</b>
<b>Kattaqo'rg'on</b>	<b>93,1</b>	<b>103,6</b>	<b>62,1</b>
<b>Qo'shrabot</b>	<b>72,0</b>	<b>96,8</b>	<b>48,1</b>
<b>Narpay</b>	<b>91,9</b>	<b>94,6</b>	<b>61,3</b>
<b>Payariq</b>	<b>155,4</b>	<b>84,7</b>	<b>103,7</b>
<b>Pastdarg'om</b>	<b>195,8</b>	<b>119,4</b>	<b>130,7</b>
<b>Paxtachi</b>	<b>97,6</b>	<b>85,6</b>	<b>65,1</b>
<b>Samarqand</b>	<b>101,5</b>	<b>80,0</b>	<b>67,7</b>
<b>Nurobod</b>	<b>62,3</b>	<b>103,6</b>	<b>41,6</b>
<b>Urgut</b>	<b>114,7</b>	<b>78,9</b>	<b>76,5</b>
<b>Tayloq</b>	<b>200,8</b>	<b>143,4</b>	<b>134,1</b>

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2019- yil yanvar-iyun

7,8



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

13,3



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

78,9



Bino va inshootlarni  
qurish

2020- yil yanvar-iyun

7,4



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

18,4



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

74,2



Bino va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **4,8 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,0 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,1 %** punktga ko'payib, **60,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,2 %** punktga kamayib, **34,4 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **32,4 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **27,0 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **67,1 %** (**7,7 %** punktga ko'payish), hamda norasmiy sektorning ulushi **34,4 %** (**34,7 %** punktga kamayish)ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **2,2 %** ni tashkil etdi. Qolgan **97,8 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **2,2 %** punktga kamaydi.





## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyun oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Samarqand sh.  
944,2

2

Oqdaryo  
226,5

3 Tayloq  
200,8



### Kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Kattaqo'rg'on sh.  
52,8

2

Bulung'ur  
61,8

3 Nurobod  
62,3





**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Kontakt telefon: (66) 2304532*